



**journal homepage:**  
<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

## **SPRINGS AND THEIR SIGNIFICANCE IN PILGRIMAGE TOURISM (IN THE EXAMPLE OF BAKHMAL DISTRICT)**

**M. R. Godalov**

*Docent*

*Jizzakh State Pedagogical University*

*Jizzakh, Uzbekistan*

*E-mail: [mirkomilgudalov78@gmail.com](mailto:mirkomilgudalov78@gmail.com)*

**D. Ahmedova**

*Student*

*Jizzakh State Pedagogical University*

*Jizzakh, Uzbekistan*

---

### **ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Bakhmal district, Chumkortog, Shevtsaria of Uzbekistan, charming nature, karst processes, springs, volume of water, shrine.

**Received:** 02.02.23

**Accepted:** 04.02.23

**Published:** 06.02.23

**Abstract:** In this article, the specific characteristics of the springs located in the territory of Bakhmal district and the significance of the shrines in tourism have been studied and analyzed in connection with them.

## **BULOQLAR VA ULARNI ZIYORAT TURIZMIDAGI AHAMIYATI (BAXMAL TUMANI MISOLIDA)**

**M. R. G'o'dalov**

*Dotsent*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Jizzax, O'zbekiston*

*E-mail: [mirkomilgudalov78@gmail.com](mailto:mirkomilgudalov78@gmail.com)*

**D. Ahmedova**

*Talaba*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Jizzax, O'zbekiston*

---

### **MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** Baxmal tumani, Chumqortog', O'zbekiston Shevtsariysi, maftunkor tabiat, karst jarayonlari, buloqlar, suvi hajmi, ziyoratgoh.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, Baxmal tumani hududida joylashgan buloqlarning o'ziga xos xususiyatlari va ular bilan bog'liq holda ziyoratgohlarning turizmdagi ahamiyati o'r ganilgan va tahlil qilingan.

## ИСТОЧНИКИ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ПАЛОМНИЧЕСКОМ ТУРИЗМЕ (НА ПРИМЕРЕ БАХМАЛЬСКОГО РАЙОНА)

**M. R. Годалов**

*Доцент*

*Джизакский государственный педагогический университет*

*Джизак, Узбекистан*

*E-mail: [mirkomilgudalov78@gmail.com](mailto:mirkomilgudalov78@gmail.com)*

**Д. Ахмедова**

*Студент*

*Джизакский государственный педагогический университет*

*Джизак, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Бахмальский район, Чумкортог, Шевцария Узбекистана, чарующая природа, карстовые процессы, родники, объем воды, святыни.

**Аннотация:** В данной статье изучены и проанализированы в связи с ними специфические характеристики источников, расположенных на территории Бахмальского района, и значение святынь в туризме.

### KIRISH

O‘zbekistonda eng maftunkor tabiat bilan ajralib turadigan tumanlardan biri Baxmal tumani hisoblanadi. Baxmal tumanida tog‘ va tog‘ oldi tekislik tabiatini hamda turli xil relyef formalarini uchratishimiz mumkin. Shu boisdan ko‘pgina adabiyotlarda, Baxmal tumaniga “O‘zbekiston Shevtsariyasi” deb bejizga ta’rif berilmaganligiga ishoch hosil qilish mumkin.

### ASOSIY QISM

Baxmal tumanidagi Chumqortog‘ va uning tog‘ oldi tekisliklarida buloqlarga boy hisoblanadi. Buloqlarning asosiy oziqlanish manbayi erigan qor suvlari va yomg‘irlar bo‘lib, ularning hosil bo‘lish sharoitida kuchli yemirilgan hamda yoriqlarga to‘la bo‘lgan paleozoy tog‘ jinslari muhim rol o‘ynaydi. Tog‘ tizmalari va yonbag‘irlari silur, ayniqsa, devon davrining ohaktoshlaridan tuzilgan. Bu tog‘ jinslari tektonik yoriqlar va nurash yoriqlaridan iborat. Shuning uchun past va o‘rtacha balandlikdagi tog‘lar asosan yer osti suvini yig‘uvchi manba hisoblanadi.

Kuchli yoriqlardan iborat bo‘lgan va karst jarayonlari taraqqiy etgan ohaktoshlarida juda ko‘p doimiy harakatdagi buloqlar paydo bo‘lgan. Ularning suv sarfi 50-70 l/sek yetadi. Buloqlarning sersuvligi va ularning sarfi ko‘proq tektonik yoriqlar bilan bog‘liq. Masalan, tektonik yoriqlar kuchli bo‘lgan ohaktoshlarda buloqlarning suv sarfi 40-50 l/sek ga oshadi. Tektonik yoriqlar kam bo‘lgan joylarda esa buloqlarning suv sarfi 20-30 l/sek ga ham yetmaydi. Ayrim buloq suvlari chiqadigan joylar ziyoratgohlarga aylantirilgan. Buloqlari bor ziyoratgohlarga O‘samat ota bulog‘i, Novqa ota bulog‘i, Malik Ajdar bulog‘i, Bibi Oysha bulog‘i, Sa‘d ibn Abu Vaqqos, Qizilsuv bulog‘i, Bog‘imozor va Xo‘ja ko‘ndalang ziyoratgoh buloqlari misol bo‘ladi. Hududda ayniqsa buloqlar bilan bog‘liq bo‘lgan ziyoratgohlar alohida ajralib turadi. Sababi,

ziyoratgoh hududidagi buloqlar yaxshi saqlanib qolingga. Quyida ziyoratgoh hududida joylashgan ayrim buloqlar haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tamiz.

*O'smat ota bulog'i.* O'smat shahridan  $39^{\circ} 44' 4,1''$  shimoliy kenglik,  $67^{\circ} 38' 50,1''$  sharqiy uzoqlikda, dengiz sathidan 1393 m balandlikda joylashgan. Ushbu buloq bugungi kunda, Baxmal tumanidagi eng ko'p sayyoh tashrif buyuradigan ziyoratgohlardan biri hisoblanadi (O'smat shahrining nomi ham shu tarixiy maskan bilan bog'liq, degan taxminlar yuradi. Lekin, O'smat tarixan avvalroq, eramizning boshlarida paydo bo'lganligini arxeologik topilmalar tasdiqladi). O'smat ota bulog'inining ziyoratgohga aylanishiga bir necha omillar ta'sir ko'rsatadi. Birinchisi, Usmon ota ismli diniy shaxs uchun ramziy qabr tiklangani va uning qabrini ziyorat qilish uchun kishilarni tashrif buyurishi bo'lsa, ikkinchidan, shifobaxsh, mineral moddalarga boy buloq suvini iste'mol qilishga bo'lgan istakni ham yuqori ekanlidir. Ushbu buloq suvining tarkibida alyuminiy ( $0,022 \text{ mg/l}$ ), astat ( $0,0014 \text{ mg/l}$ ), nikel ( $0,0016 \text{ mg/l}$ ), mis ( $0,0004 \text{ mg/l}$ ), rux ( $0,006 \text{ mg/l}$ ), kadmiy ( $0,00001 \text{ mg/l}$ ), sirkoniy ( $1,2 \text{ mg/l}$ ), molibden ( $0,0068 \text{ mg/l}$ ) elementlari mavjud. Buloqdan bir sekundda  $0,5 \text{ litr}$  suv chiqadi. Suvning umumiyligi  $5,30 \text{ mg-ekv/l}$ . Buloq suvi shifobaxsh hisoblanadi. Ko'pchilik tashrif buyuruvchilar buloq suvidan iste'mol qilish maqsadida kelishadi. Buloq suvidagi minerallar, buloq atrofidagi tuproqlarga singib ketgani uchun ham u yerning tuprog'i turli teri kasalliklarga davo bo'ladi. 2000 - yili Usmon ota qabri ustida maqbara qurilgan. O'zbekiston madaniy meroslar ro'yxatiga kiritilgan O'smat ota bulog'i va maqbaraning umumiyligi maydoni  $0,42 \text{ hektar}$  bo'lib, davlat tomonidan muhofaza qilib kelinmoqda.

*Novqa ota bulog'i.* Baxmal tumani markazi O'smat shahridan 5 km, Jizzax shahridan qariyb 90 km lar uzoqlikda Novqa qishlog'ida  $39^{\circ} 44' 2,5''$  shimoliy kenglik,  $67^{\circ} 42' 41,7''$  sharqiy uzoqlikda joylashgan. Maydoni  $2,25 \text{ hektar}$  tashkil qiladi. Ushbu ziyoratgoh tumandagi eng qadimgi qadamjolardan hisoblanadi. Uning kelib chiqishining huddi O'smat ota bulog'i singari bir necha talqinlari mavjud. Buloq boshiga shaxsi noma'lum bo'lgan avliyo dafn etilgan. Tarixdan u haqidagi turli afsonalar yetib kelgan. Buloq yer yorig'ida, ya'ni silur davriga oid ohaktoshlar orasidan sizib chiqadi. Uning mutloq balandligi 1144 m. Buloqdan sekundiga  $200 \text{ litr}$  suv chiqadi. Buloq suvining tarkibi gidrokarbonatli kalsiyli minerallashgan suv bo'lib, minerallashish darajasi  $0,21 \text{ g/l}$ , umumiyligi  $3,2 \text{ mg-ekv/l}$  tashkil qiladi. Tarkibida alyuminiy ( $0,039 \text{ mg/l}$ ), astat ( $0,0014 \text{ mg/l}$ ), nikel ( $0,0016 \text{ mg/l}$ ), mis ( $0,0003 \text{ mg/l}$ ), rux ( $0,003 \text{ mg/l}$ ), kadmiy ( $0,00002 \text{ mg/l}$ ), sirkoniy ( $0,31 \text{ mg/l}$ ), molibden ( $0,0027 \text{ mg/l}$ ), marganets ( $0,0016 \text{ mg/l}$ ) elementlari mavjud.

Novqa ota bulog'i suvi hajmi bo'yicha Baxmal tumanidagi eng yirik buloq. Buloq suvi to'planadigan katta hovuzda ko'plab baliqlar mavjud. Mahalliy aholi baliqlarni ziyoratgoh hududida bo'lganligi sababli muqaddas baliqlar deb biladi va ovlamaydi. Qolaversa, baliqlar tumshuqlari yordamida buloq ko'zlarini ochib, buloq suvlarini ko'payishiga ham o'ziga xos ta'sir

ko‘rsatadi. Shu sababli ham mahalliy aholi buloqdan boshlanuvchi soyalar orqali baliq oqib chiqib ketsa ham, baliqlarni qaytarib olib kelib katta hovuzga qo‘yib ketadi.

*Qizilsuv bulog‘i.* Novqa qishlog‘idan 4 km shimoli-g‘arbda Oqtosh qishlog‘i dasasida joylashgan, ma’danli suvlarga to‘yingan shifobaxsh buloq. Buloq suvi tarkibi hindistonliklar tomonidan ham o‘rganilgan. Qizilsuv deyilishining sababi, buloq ko‘zidagi toshlar qizil ranglidir. Toshlarning qizilligi temir moddasi bilan bog‘liqdir. Ushbu buloq ziyoratgohga aylanishi uni suvining tarkibidan ko‘ra toshlarning rangi bilan ko‘proq bog‘liq. Aynan shu toshlarning rangi odamlarni buloq boshiga chorlaydi. Chunki kishilar tabiatdan g‘ayritabiylilikni axtarishadi.

“Bog‘i Mozor” ziyoratgohi. O‘smat shahridan keyingi yo‘nalishda taxminan 8 km yursangiz Mog‘ol qishlog‘idagi “Bog‘i Mozor” ziyoratgohiga yetib kelasiz. Bog‘i Mozorda katta xonaqohnning qoldiqlari bor. Shunga qaraganda bu qishloq qadimdan ziyoratgoh joylardan bo‘lgan.

Sayid Azimning “Baxmalnoma” kitobida ushbu ziyoratgohning paydo bo‘lish tarixi haqida ma’lumot berilgan. Unga ko‘ra 1369-yilning ko‘klamida Amir Temurning qo‘shini jangga tayyorgarlik ko‘rayotganida lashkarboshilardan biri betob bo‘lib qoladi. Temurbek uni tog‘ning eng so‘lim joylaridan biriga olib keladi, bu joy qo‘shchinorlar joylashgan soylik edi va lashkarboshi qo‘shchinorlar soyasida jon beradi. Keyinchalik Amur Temur ushbu chinorlar yaqinida bir xonaqoh qurdirib, u yerni obod qildiradi. Hozirda bu yer ziyoratgohga aylangan. Qo‘shchinor atrofida esa yilning issiq mavsumlarida kishilar hordiq chiqaradi.

Avliyo qishlog‘ida joylashgan Sa’d ibn Abu Vaqqos bulog‘ida O‘zbekiston “Qizil kitob”iga kiritilgan relikt qora baliqlarni ko‘rish mumkin. Ziyoratgoh bo‘lganligi tufayli ham buloq va undagi baliqlarga mahalliy aholi tomonidan umuman ziyon yetkazilmaydi. Mulohaza qiladigan bo‘lsak, ziyoratgoh hududida joylashmagan buloqlar, ziyoratgoh hududida joylashgan buloqlarga nisbatan ko‘p ziyon ko‘radi. Bu oddiy haqiqat bo‘lib, mahalliy aholi doimo ziyoratgohlarga nisbatan munosabati yaxshi bo‘lib kelgan. Ba’zi bir pessimist kishilar tomonidan buloqlar oldidagi ziyoratgoh qabrlar o‘ylab topilgan degan fikrni aytadi. Biz buloqlar oldidagi ziyoratgoh qabrlarni haqiqatdan ham bo‘lgan yoki bo‘lmanligi tekshirish emas, balki boshqa buloqlar oldida ham shunday ziyoratgohlар borligi yoki odamlar ongiga har bir buloq ziyoratgohdir degan fikrni singdirishimiz lozimdir. Buloqlarga nisbatan odamlarning fikrini o‘zgarishi, davlat tomonidan buloqlarni muhofaza qilish zaruriyatini ham qoldirmaydi (G‘o‘dalov M, 2014 y).



**Sa'd ibn Abu Vaqqos ziyoratgohi  
XULOSA**

Bahmal tumanida joylashgan yirik buloqlar atrofi muqqaddas ziyoratgohlarga aylanganligini ko‘rib o‘tdik. Buning asosiy sababi arid o‘lkali hududlarda suvning qadri barcha tabiat ne’matlaridan ustun hisoblanadi. Shu sababli ham buloq atrofida “muqaddas ziyoratgoh”ni borligi, bu o‘z navbatida mahalliy xalq orasida “ziyoratoh buloq”ning qadrini doimiy ravishda baland bo‘lishiga olib keladi.

Bahmal tumanida joylashgan buloqlar va uning atrofida joylashgan ziyoratgohlarda turizmni rivojlantirish maqsadida bir qancha tadbirlarni amalga oshish lozimdir. Jumladan:

- Xorijiy va mahalliy sayyoohlar uchun Bahmal tumani bo‘ylab bir kunlik “ziyoratgoh buloqlar” marshrutlarini ishlab chiqish;
- “Ziyoratgoh buloqlar” marshruti davomida har bir buloqning, tabiiy geografik o‘rni, tarixi, o‘ziga xos xususiyatlari, mineral tarkibi, tabiatini hamda ziyoratgoh haqida to‘liq ma’lumot berish;
- Tuman hududidagi “ziyoratgoh buloqlar” haqida ma’lumot beruvchi sxematik xaritasini yaratish;
- “Ziyoratgoh buloqlar” tabiatini haqida to‘liq ma’lumotlar beruvchi bukletlar tayyorlash;
- Xorijlik sayyoohlar uchun “Ziyoratgoh buloqlar” mustaqil borib o‘rganishlari uchun mobil ilovalar yaratish lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Alibekov L.A. Inson va tabiat. Darslik. Samarqand: SamDU, 2020 y

2. Og‘a Burgutli. Jizzax viloyati ziyyaratgohlari. – T.: “Fan”, 2008 y.
3. Hakimov Q, G‘o‘dalov M. Jizzax viloyati geografiyasi. Jizzax: “Sangzor”, 2004
4. G‘o‘dalov M. R. Jizzax viloyati tabiatni va uni muhofaza qilish. - T.: “Fan va texnologiya”, 2014 y
5. G‘o‘dalov M.R., Normatova M. Jizzax viloyatining turistik hududlari. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy geografiya: yutuqlar, muammolar va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materallari. Toshkent: 2013 y.
6. G‘o‘dalov M.R., Hazratqulov H. Jizzax viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari. Geografiyaning mintaqaviy muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materallari. Jizzax 2017 y.
7. G‘o‘dalov M.R. Jizzax viloyatida turizmni rivojlantirishda klaster usulini tadbiq etish yo‘llari. Tafakkur ziyosi // Ilmiy-uslubiy jurnal.-2018, №2. 93-95 b.
8. G‘o‘dalov M.R., Muxamedov O.L. Tabiatni muhofaza qilish: muammo va yechimlar.

Guliston 2021